

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**“AVTOTRANSPORT VOSITALARI KONSTRUKSIYASINING FOYDALANISH
SHARTLARI BO‘YICHA XAVFSIZLIGI TO‘G‘RISIDA”GI UMUMIY TEXNIK
REGLAMENTNI TASDIQLASH HAQIDA**

“Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq, avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo‘yicha xavfsizligiga doir yagona talablarni belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. “Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo‘yicha xavfsizligi to‘g‘risida”gi umumiy texnik reglament ilovaga* muvofiq tasdiqlansin va u rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab olti oy o‘tgach amalga kiritilsin.

**Ilova rus tilidagi matnda berilgan.*

2. “O‘zstandart” agentligi vakolatli davlat organlari bilan birgalikda bir oy muddatda avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish sharoitlari bo‘yicha xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi standartlashtirishga doir ilgari qabul qilingan normativ hujjatlarning aniq ro‘yxatini aniqlasin, keyinchalik ularni “Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish sharoitlari bo‘yicha xavfsizligi to‘g‘risida”gi umumiy texnik reglament amalga kiritilgan kundan boshlab majburiy tusdaligini bekor qilish va qo‘llashning ixtiyoriylikka ega bo‘lishi chora-tadbirlarini amalga oshirsin.

3. O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda aholi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo‘yicha xavfsizligini ta‘minlashga doir talablar to‘g‘risida keng xabardor qilinishini va ular o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borilishini ta‘minlasin.

4. Vazirliklar va idoralar ikki oy muddatda o‘z idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari U.U. Rozuqulov va B.I. Zakirov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2012-yil 4-iyul,
191-son

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 26-27-son, 298-modda; 2016-y., 3-son, 23-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.06.2018-y., 09/18/396/1287-son, 18.07.2018-y., 09/18/547/1531-son)